

МАКТАBLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Keldiyarov Dilshod Siroj o'g'li

*Samarqand viloyati Samarqand shahar 40-umumiy
o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika o'qitish metodikasi, informatika talimi jarayonida innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi, informatika ta'limida virtual texnologiyalar, informatikadan darsdan tashqari mashg'ulotlarni loyihalashtirish haqida to'liq fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: informatika, o'qitish metodikasi, virtual texnologiyalar, innovatsion pedagogik faoliyat.

Kirish:

Axborot hajmining keskin kengayib borayotganligi o'quvchilar uchun ham, pedagoglar uchun ham fanni o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Informatika talimi jarayonida turli-tuman pedagogik texnologiyalardan foydalanib, samarali natijaga erishish uchun o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatini oldindan loyihalashtirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Informatikani o'qitishda foydalaniladigan texnologiyalar xilma-xil bo'lib, qo'llanmada bu texnologiyalar informatikani o'qitish misolida batafsil yoritib berilgan. Informatikani o'qitish jarayonida ta'lim jarayonini loyihalashtirish asosiy vazifa sanalib, o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatni loyihalashtirishi natijasida o'quv jarayonini, darsdan tashqari mashg'ulotlarni loyihalashtirish, bilimlarni nazorat qilish va baholashni loyihalashtirish, informatikani kasbga yo'naltirib o'qitishni loyihalashtirishga erishilishi ilmiy tushunchalarga asoslanib ochib berilgan.

Informatika fani o'qituvchisining tayyorlash davrida asosiy e'tiborni boshqaruvchanlik faoliyatini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Boshqaruvchanlik faoliyati didaktik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib u: dars va darsdan tashqari faoliyatning modelini tuzishda, darsni loyahasini tuzishda maqsadni va vaqtni to'g'ri belgilashda, darsni loyihalashtirishda, texnologik xaritalarni tuzishda, tugallangan dars jarayonini tahlil etishda, nazoratlash va baholash vositalaridan o'rinli foydalanishda, dars natijalarini tashxislash jarayonlarida oz aksini topadi.

Informatika o'qituvchisi bunday faoliyatlarni amalga oshirishda o'qitishning innovatsion metodlari, internet, web texnologiyalari, bulutli texnologiyalar va mobil texnologiyalaridan ham foydalanishni yolg'a qo'yadi.

Natijalar:

Informatika fanlarida o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish bu o'quv jarayonida amalga oshadigan, maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchilarning faoliyatni maqsadga yo'naltirib rejalashtirishni nazarga tutadigan jarayon. O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish asosini faollik, faoliyat va o'quv-bilish faoliyati kabi tushunchalar tashkil etadi. O'quv-bilish faoliyatini faollashtirish-bilim va faoliyat usullarini samarali o'zlashtirish bolishi bilan birga, o'quv materialini har bir oquvchining faol aqliy harakatining mahsuliga aylantiriladi.

Informatika fanidan nazorat qilishning xilma-xil usullaridan foydalanish oquvchilar bilimni aniq baholashga imkoniyat beradi. Boshqa fanlar singari informatika fanida ham oquvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni bir-biridan farqlash lozim bo'ladi. Nazariy bilimlarni nazorat qilishning an'anaviy usullariga og'zaki so'rov, yozma ish, testdan foydalanilsa, amaliy ko'nikmalarni baholashda berilgan amaliy topshiriqni bajarish hisobga olinadi.

Muhokama:

Bugungi kunda informatika o'qituvchilari oz kasblariga oid axborotlarni internet, elektron pochta, forumlar, turli ijtimoiy saytlarda axborot almashinuvi, elektron kutubxonalar, ma'lum kasbdoshlari guruhlaridan, fanga oid ilmiy adabiyotlar, o'quv va uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalardan olishlari mumkin.

Oxirgi vaqtlarda informatika sohasida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari, xususan, multimedia, Internet, bulutli texnologiya kabi yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi o'quvchilarda informatika bilimlariga bo'lgan qiziqishni yanada orttirdi.

Informatika fanidan loyiha asosida tashkil etiladigan darslar o'qituvchidan darsni tashkiliy jihatidan puxta o'ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida, o'quvchilarni jarayonga qiziqitira oladigan tarzda loyihalay olishni talab etadi. O'quv jarayonini loyiha yordamida tashkil qilishda o'qituvchidan faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini bajarilishi talab qilinadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, informatika fanidan loyihayordamida tashkil qilinadigan darslar o'qituvchidan darsni tashkiliy tomondan puxta o'ylangan, sifatli, ishchanlik muhitida, o'quvchilarni jarayonga qiziqitira oladigan tarzda loyihalay olishni talab qiladi. O'quv jarayonini loyiha asosida tashkil etishda o'qituvchidan faollikda ish yurituvchi emas, balki keng qamrovli ijodkor pedagog rolini bajarilishi talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Mamarajabov va boshqalar. "Axborot texnologiyalari" fanini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. T.: TDPU, 2012.

2. R. R. Boqiyev. “Informatika” fanini kasbiy sohalarga yo`naltirib o`qitish metodikasi. Metodik qo`llanma. T.: TDPU, 2012.
3. A.Sattorov. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. T.: “O.,qituvchi”, 2008.
4. A.Abduqodirov, A.Xaitov, Shodiev R. Axborot texnologiyalari. Darslik. T.: “O'zbekiston”, 2004.
5. Kayumova N.A. Informatika o`qituvchisining metodik tizimini loyihalash. // Zamonaviy ta'lim. -Toshkent, -2017.